



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



CONFERENCES.UZ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



KONLARNI OCHIQ USULDA QAZIB OLIISH NATIJASIDA ATROF-MUHITNING ZARARLANISHI

Oxunjonova Dildora Komiljon qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida foydali qazilmalarni ochiq, ya’ni karyer usulida qazib olishning afzalliklari va kamchiliklari hamda kon ishi natijasida atrof-muhit holatining o‘zgarishiga oid ma’lumotlar va tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: karyer, yer osti suvlari, tabiiy resurs, iqlim, tuproq, shamol.

ENVIRONMENTAL DAMAGE AS A RESULT OF DEPOSIT MINING

Okhunjonova Dildora

Abstract: This article provides information and recommendations on the advantages and disadvantages of open pit mining in Uzbekistan, as well as changes in the environment as a result of mining.

Key words: pit, underground water, national resource, climate, soil, wind.

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda mamlakatimizda 2800 ga yaqin turli foydali qazilma konlari topilgan. Ulardan 850 dan ortig‘i to‘la razvedka qilingan va 400 dan ortig‘i ishlatilmoqda. Konchilik sanoati korxonalarida kon qazish ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning eng asosiylari quyidagilar:

- foydali qazilma konlarini o‘zlashtirish atrof-muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatib qator ekologik muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi;
- qazish ishlarini tobora chuqurlashib borishi natijasida kon-geologik sharoitlarni murakkablashib borishi, gazodinamik hodisalarning sodir bo‘lish ehtimolligi, shaxta atmosferasi haroratini ko‘tarilishi kabi omillarning mavjudligi. Bularning barchasi kon ishlarining murakkab va xavfli bo‘lishiga olib keladi.

Respublikamizdagi eng yirik tog‘-kon sanoat rayonlaridan biri Olmaliq hisoblanadi. Bu hududda kon, asosan, ochiq usulda qazib olinadi.

Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib chiqarishning yer osti usuliga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Konlarni ochiq usulda qazib olishning xususiyatlari

Ijbiy jihatlari	Salbiy jihatlari
<ul style="list-style-type: none"> - Ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish imkoniyati mavjudligi tufayli mehnat unumdorligi yuqori va kon qazish ishlari xarajatlari kam bo'lishi ta'minlanadi; - mehnat qilish sharoiti qulay va nisbatan xavfsizroq bo'ladi; - foydali qazilmani imkon qadar qazib olish mumkin bo'ladi. 	<ul style="list-style-type: none"> - ba'zan ochiq kon ishlarining ob-havoga bog'liqligi; - katta yer maydonlarining qishloq xo'jalik maqsadida foydalanishdan vaqtincha cheklash; - yer ostida suv balansining buzilishi.

Olmalik tog'-kon sanoat rayonidagi asosiy konlar, jumladan, Qalmoqqir, Saricheka kabilar ham karyer usulida qazib olinadi.

Qalmoqqir konidan chiqqan kam ma'danli tog' jinslari uyumi o'lchamlari 50 mm dan 100 mm gacha bo'lgan bo'laklardan iborat. Bunday tog' jinslarining bir yillik uyumi massasi 995,5 ming t, bir yillik hajmi esa 382,9 ming m³ ni tashkil etadi. Ushbu kondan foydalanayotgandan buyon hozirgi vaqtgacha taxminan 42806,5 ming tonna tog' jinslari to'plangan va uyilgan umumiy hajmi esa 16464,7 ming m³ ni tashkil etgan.



1-rasm. Qalmoqqir koni

Saricheka koni ham ochiq usulda qazib olinadi. Saricheka koni kam ma'danli tog' jinslari uyumiga bir yilda 450,55 ming t, hajmi esa 172,75 ming m³ tog' jinslari

chiqarib tashlanadi. Kon ishga tushgandan buyon hozirgacha 13657,0 ming t og'irlikda va 5355,4 ming m³ hajm miqdorida kam ma'danli tog' jinslari tashlamaga olib chiqib yig'ib qo'yilgan.

Bundan tashqari Urgaz, Shovgaz, Qo'rg'oshinkon va Saribuloq kabi ruda konlari siyrak metalli konlar turiga mansubdir.

Ma'lumot uchun o'rta hisobda 100 kg xomashyodan 350 gr toza mis olinadi. Bu esa umumiy hisobda ruda holidan to toza mis olish uchun 11 ta jarayonni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, rudani qazib olish va undan kerakli metallarni ajratib olish natijasida atrof-muhitga texnogen chiqindilar chiqarish ortadi.

Hudud va unga yaqin maskanlarda havo, suv, tuproqda zararlanish jarayoni mavjud. Ayniqsa, havodagi zaharli moddalar sabab ayrim yillari "kislota yomg'iri" holatlari ham kuzatilgan. Bu esa o'z o'rnida, tirik organizmlarga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. OTMK hududida tuproqda aniqlangan texnogen sochilish areali shakli og'ir metallarning kompleksidan iborat. Odatda, metallurgiya kombinatlari CO, SO₂ va ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi ko'pgina metallarning anchagina miqdorini havoga chiqarib yuboradi. Olmaliq shahar tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar tarkibiga ko'ra oltingugurt angidridi 90 ming tonnadan ortadi. Uglerod oksidi esa 5 ming tonnadan yuqoridir. Bundan tashqari, azot ikki oksidi, vodarod ftoridi, ammiak, oltingugurt ishqori, qo'rg'oshin, mishyak, mis kabilarning ham ulushi yuqoridir.

Aynan Olmaliq tarkibidagi konlarning faoliyatining inson salomatligiga ta'siri bo'yicha M.X.Bekmuhamedova magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida ko'plab izlanishlar olib borgan. Natijada kondan atrofga chiqarilgan har bir moddaning qanday ta'sirlari borligi ochib berilgan. Unga ko'ra, Olmaliq shahri va unga yaqin hududlarda suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to'qima kasalliklari, asab tizimi, qon va qon aylanish tizimi, teri va teri osti to'qimalari, nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallanish aholida bir muncha yuqoriligi keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, asosan atrof-muhitga kon ishining ta'siri shamol va relyef kabi omillar natijasida tarqaladi. Aynan Ohangaron vodiysining yuqori qismidan to quyi Ohangarongacha relyefning nishabligi sabab quyi qismida chiqindilar bilan zararlanish miqdori yuqoriroq. Holatni yaxshilash uchun chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich va uzluksiz amalga oshirish joiz. Xususan, havodagi zararli birikmalarni tozalashga yordam beradigan daraxtzorlarni ko'paytirish, tabiiy filtr faoliyatlariga ahamiyat qaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmuhamedova M.X. Sharipov Sh.M. Geotizimlarda kimyoviy birikmalarning to`planishi va inson salomatligiga ta`siri. O`zbekiston Yevrosiyo makonida: geografiya, geoiqtisodiyot, geoekologiya//Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2017.
2. Sagatov N.H. Kon ishlari asoslari. Cho`lpon, Toshkent, 2007.
3. Hasanov A.S. va boshqalar. Rangli metallar metallurgiyasi. Fan, Toshkent, 2010.